



MAMLAKATDA SOLIQ QARZDORLIGINI ILG'OR XORIY TAJRIBASI ASOSIDA QISQARTIRISH YO'LLARI

Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li -
Toshkent moliya instituti
mustaqil izlanuvchi, PhD

doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss3/a48

Annotatsiya. Mazkur maqolada soliqqlarning davlat iqtisodiyotidagi ahamiyati tadqiq qilingan hamda bugungi kunda mamlakatda soliq qarzdorligini qisqartirish dolzarb masalalardan biri ekanligi asoslangan. Soliq qarzdorligini kamaytirish bo'yicha xorijiy iqtisodchi olimlarning fikr va mulohazalari o'rganilgan. Yuridik shaxslarning, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzlari tahlil qilingan. Rivojlangan mamlakatlarda soliq qarzdorligini undirishning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, mamlakatimizda soliq qarzdorligini qisqartirish, shu jumladan, uni samarali undirish amaliyotini takomillashtirish borasida taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Asosiy tushunchalar: soliq organi, soliq to'lovchilar, yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, soliq yuki, soliqlar va yig'imlar, soliq qarzdorligi, davlat, budget.

ПУТИ СНИЖЕНИЯ НАЛОГОВЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ В СТРАНЕ НА ОСНОВЕ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

Хакимов Улугбек Фуркатович -
Самостоятельный соискатель Ташкентского
финансового института, PhD

Аннотация. В данной статье рассматривается значение налогов в экономике государства и он основан на том, что на сегодняшний день сокращение налоговой задолженности в стране является одним из актуальных вопросов. Изучены мнения и комментарии зарубежных экономистов о снижении налоговой задолженности. Проанализирована налоговая задолженность юридических лиц, в том числе индивидуальных предпринимателей. Изучены особенности взыскания налоговой задолженности в развитых странах. На основании вышеизложенных обстоятельств сформулированы предложения и рекомендации по сокращению налоговой задолженности в нашей стране, в том числе по совершенствованию практики ее эффективного взыскания.

Ключевые слова: налоговый орган, налогоплательщики, юридические лица, индивидуальные предприниматели, налоговое время, налоги и сборы, налоговая задолженность, государство, бюджет.

WAYS TO REDUCE TAX DEBT IN THE COUNTRY BASED ON ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE

Hakimov Ulugbek Furqat ogli -
Independent researcher of the
Tashkent Financial Institute, PhD

Abstract. This article examines the importance of taxes in the state economy and today, it is based on the fact that the reduction of tax debt in the country is one of the urgent issues. The opinions and comments of foreign economists on reducing tax debt were studied. Tax debts of legal entities, including individual entrepreneurs are analyzed. Specific features of tax debt recovery in developed countries have been studied. Based on the above-mentioned circumstances, proposals and recommendations have been formulated to reduce tax debt in our country, including improving the practice of its effective collection.

Key words: tax authority, tax payers, legal entities, individual entrepreneurs, tax burden, taxes and fees, tax debt, state, budget.

Kirish. Jahon mamlakatlarida soliq qarzlari ortib borishining asosiy sabablaridan biri sifatida soliq yukining yuqoriligi ko'rsatiladi. Jumladan, soliq yuki Estoniya davlatida 48 foizni, Fransiya davlatida 46 foizni, Ukraina davlatida 44,5 foizni, Litva davlatida 42 foizni, Rossiya Federatsiyasida 41 foizni, Ozarbayjon davlatida 40,5 foizni, Germaniya davlatida 39 foizni, Latviya davlatida 38,5 foizni va Belorussiya davlatida 33,9 foizni tashkil etadi [1]. Mazkur ko'rsatkichlar mamlakatda faqat soliq qarzining kelib chiqishiga sabab bo'lmasdan, balki ushbu mamlakatlarda investorlarning

kirib kelishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda yashirin iqtisodiyotning oshishiga ham olib keladi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillaridan boshlab mustaqil soliq siyosati yaratildi hamda uning strategiyasi ishlab chiqilib, hozirgi kunda izchil takomillashtirilib borilmoqda. Xususan, soliq siyosatini takomillashtirishning bir qismi sifatida ish haqi fondidagi soliq yukini pasaytirish va tadbirkorlik subyektlari uchun soliqlarni optimallashtirish bilan ta'minlaydigan ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2016-yildan 2021-yilgacha bo'lgan davrda fuqarolar uchun 8 foiz miqdorida majburiy undiriladigan sug'urta badali bekor qilindi,

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq stavkalari 12 foizgacha, shu jumladan, pandemiya davrida 1 foizgacha pasaytirildi. Bu esa o'z navbatida, ish haqi fondi bo'yicha soliq yukining 1,5 baravaridan ko'proq kamayishiga olib keldi [2].

Mamlakatimizda soliq sohasida amalga oshirilayotgan qator islohotlar natijasida bugungi kunda soliq yuki 27 foizgacha tushirildi. Shunday bo'lsa-da, soliq qarzdorligi yildan yilga oshib bormoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususi sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsadida 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 25 foizgacha kamaytirish vazifasi soliq organlariga yuklatildi [3].

Davlat budjeti daromadlarining asosiy qismi soliqlar va yig'imlar hisobidan shakllanishi hamma-mizga ma'lum. Soliqlar va yig'imlarning o'z muddatida va to'liq hajmda tushishi davlat miqyosida amalga oshirilayotgan barcha chora-tadbirlarning, ya'ni budjet va maqsadli jamg'armalarning xarajat qismini o'z vaqtida moliyalashtirishga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, soliqlarning belgilangan muddatda kelib tushishini ta'minlash vazifasi muhim ahamiyatga ega hamda bu, o'z navbatida, soliq organiga katta mas'uliyat yuklaydi. Shuningdek, soliq to'lovchilarning soliqlar va yig'imlar bo'yicha soliq qarzdorligini qisqartirish va kelgusida soliq qarzdorliklarining vujudga kelishining oldini olishda zarur chora-tadbirlar ishlab chiqish bugungi kunning e'tibor beriladigan eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, shu jumladan, soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzdorlik summalarini qisqartirishning ayrim masalalari qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Mazkur masala bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan xorijlik olim V. Morozning fikriga ko'ra, «Soliq to'lovchilarning soliqlar va soliq qarzini bir xil mazmunda tushunishi chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Hech qachon sud yoki soliq organi soliqlarni undirmaydi. Faqatgina soliq qarzi, penya hamda moliyaviy sanksiyalar undirishni talab etadi. Hattoki, soliq qarzi ham undirilmay, balki ixtiyoriy ravishda to'lanishi mumkin. Aynan shu xulosa soliq qonunchiligida belgilab qo'yilsa va buning natijasida fuqarolarning huquqiy ongida ham aks etsa, soliq to'lovchilar uchun soliqlar «erkinlik» belgisi sifatida ham namoyon bo'ladi» [4].

Xorijlik olim Michael Brostek esa o'z tadqiqotida soliq qarzi undirilishining samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi omillarini ko'rsatib o'tadi, xususan:

– mamlakatda soliq qarzi summalarining paydo bo'lishiga yo'l qo'yishning oldini olishda soliq yukini pasaytirish kelajakda soliq qarzdorliklari kamayishiga olib keladi;

– muddatida to'lanmagan soliqlar va yig'imlarni undirish strategiyasi faqat belgilangan davr mobaynida o'z ijobiy natijasini beradi [5].

Bu borada rus tadqiqotchilari S.N.Alixin va D.A.Levacheva o'z ilmiy tadqiqotlarida soliq qarzini undirish mexanizmining nazariy asoslarini keltirib o'tishgan. Unga ko'ra, ular soliq qarzini undirish soliq bazasini kengaytirish bilan birgalikda uni soliq to'lovchidan undirish murakkabligini ta'kidlab, bu jarayonga alohida yondashuvni inobatga olgan holda soliq qarzi mavjud bo'lgan tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy holatidan kelib chiqib undirish mexanizmi ishlab chiqish kerakligini ta'kidlagan [6].

Bundan tashqari I.G.Vinoxodova ham o'zining ilmiy ishida soliq qarzlarini undirishda soliq qarzi mavjud xo'jalik yurituvchi subyektlardan mulklarini xatlash jarayonini ko'paytirish samarali natija berishini aytib o'tadi [7].

Mahalliy iqtisodchi olimlarimiz A. Tangriqulov va Sh. Toshmatovlar fikricha, soliq qarzlarining nazariy jihatdan vujudga kelish sabablari quyidagilardan iborat:

– o'zaro moliya-xo'jalik munosabatlarida bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to'lov intizomiga rioya qilmaslik va buning oqibatida debitorlik, kreditorlik qarzlarining oshib ketishi;

– moliya-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish va bu faoliyatni noto'g'ri boshqarish;

– xo'jalik yurituvchi subyektning mahsulotiga (bajarilgan ish va xizmatlarga) iste'mol talabining keskin o'zgarishi;

– ishlab chiqarilgan mahsulotning (bajarilgan ish va xizmatlarning) sifati buyurtmachining yoki bozor talabiga javob bermasligi [8].

Shuningdek, I. Niyazmetovning ta'kidlashicha, soliq qarzi yuzaga kelishini "QQS va mulkiy soliqlar yukining, asosan, sanoat korxonalarini zimmasiga yuklatilganligi soliq yukining notekis joylashuviga, sanoat korxonalarini soliq yukining nisbatan og'ir bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa korxonalarda soliq qarzi muammosini tugatishga yo'l bermaydi. Soliq qarzlarining katta qismi umumbelgilangan soliqlar kesimiga to'g'ri keladi. Bu esa soliq yukining umumbelgilangan tartibda soliq to'lovchi korxonalar moliyaviy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan darajada og'irligidan dalolat beradi" [9].

A. Jo'rayevning "Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning dolzarb muammolari" mavzusidagi doktorlik tadqiqot ishi davlat budjeti daromadlarini shakllantirish borasidagi muammolarni tahlil qilishga bag'ishlagan. Aynan ushbu tadqiqotda mamlakatimizda ilk bor davlat budjeti soliqli daromadlari ijrosida to'lov intizomi, soliqlarni undirish-


da budjetda qarz (boqimanda) vujudga kelish holatlari tadqiq qilingan [10].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik kuzatish, statistik grafiklardan foydalanilgan holda qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, absraktmantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari soliq ma'murchiligini, xususan, soliq qarzdorligini qisqartirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. So'nggi yillarda mamlakatimizda raqobatbardosh mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarilishini rag'batlantirish, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida erkin raqobat muhitini qo'llab-quvvatlash va ular uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan soliq tizimini joriy qilishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada hukumatimiz tomonidan soliq yukini kamaytirish, soliq turlarini unifikatsiya qilish, soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish hamda soliq organiga soliq hisobotlarini taqdim etish tartibini soddalashtirish, shuningdek, soliq stavkalarini optimallashtirishga ham alohida e'tibor berildi.

Ammo amaliyotda soliq to'lovchilar, xususan, bizning holatimizda aynan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan har xil noqonuniy yo'llar (sxema) orqali soliqlarni qasddan to'lamaslik yoki soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlari ham uchraydi. Ushbu to'lanmagan summa soliq qonunchiligiga binoan soliq qarzi hisoblanib, soliq organlari tomonidan majburiy undirishga qaratiladi. Soliq organi tomonidan barcha choralar ko'rilganidan so'ng ham soliq qarzdorligi undirilmay qolsa, ushbu soliq to'lovchilar sud tomonidan to'lovga qobiliyatsiz, ya'ni bankrot deb e'tirof etiladi hamda ularning soliqlar va yig'implardan qarzdorlik summalari umidsiz deb qaralib, hisobdan chiqariladi [11].

Mamlakatimizda ushbu holatni 2017-2021-yillar mobaynida soliq qarzdorliklari undirilishi umidsiz bo'lgan, shu jumladan, jinoyat ishi qo'zg'atilgan, xufiyona faoliyat yuritgan korxonalar hamda yer maydonlari olib qo'yilgan soliq to'lovchilar sud tomonidan to'lovga qobiliyatsiz (bankrot) deb topilgan soni tahlilini quyidagi 1-rasm orqali ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. Soliq qarzi umidsiz deb e'tirof etilgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tahlili [12]

Yuqoridagi 1-rasm ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, respublika bo'yicha umidsiz soliq qarziga chiqarilgan soliq to'lovchilar soni 2017-yilda 101,1 mingta, 2018-yilda 121,3 mingta, 2019-yilda 109,7 mingta, 2020-yilda 135,9 mingta hamda 2021-yilda 100,6 mingtani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan 0,5 mingtaga yoki o'rtacha 1 foizga kamaygan.

Shuningdek, umidsiz soliq qarzi deb e'tirof etilib, hisobdan chiqarilgan summa 2017-yilda 1 508,5 mlrd. so'mni, 2018-yilda 2 191,6 mlrd. so'mni, 2019-yilda 1 880,5 mlrd. so'mni, 2020-yilda 2 104,0 mlrd. so'mni hamda 2021-yilda 5 039,8 mlrd. so'mni tashkil etgan va bu 2017-yilga nisbatan 3 531,3 mlrd. so'mga yoki 70 foizga (o'sish sur'ati o'rtacha 17 foiz) oshgan. Agar yillar davomida inflatsiya darajasi va soliq to'lovchilar sonini

inobatga oladigan bo'lsak, ushbu yillarda umidsiz soliq qarzigacha chiqarilayotgan soliq qarzi summalarida ham deyarli farq mavjud emas. Ammo yuqorida tahlil qilingan ko'rsatkichlarni ijobiy deb bo'lmaydi va bu soliq munosabatlari sohasida soliq qarzdorligini undirish mexanizmini yanada rivojlantirish ishlarini davom ettirish kerakligidan dalolat beradi.

Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, har bir davlat va jamiyatning o'z tarixi, kelib chiqishi, strategik joylashgan o'rni, mentaliteti, demografik tarkibi alohida ahamiyat kasb etadi. Soliq qarzdorligining paydo bo'lishida ushbu unsurlar ham rol o'ynaydi. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda soliq qarzdorligini undirishning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi 1-jadval asosida ko'rib chiqamiz.

1-jadval

Xorijiy mamlakatlarda soliq qarzini undirish mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari [13]

| Mamlakatlar | Soliq qarzini undirish mexanizmi |
|-------------|---|
| AQSh | Muddatida to'lanmagan soliqlarga foizlar yiliga 6 foiz stavkada hisoblanadi. Kechiktirilgan jarimalarga esa oyiga 0,5 foizni tashkil etadi. Agar soliq to'lovchi soliq qarzini 90 foizini to'lasa, jarimalarni to'lamasligi mumkin, ammo soliqlar bo'yicha hisoblangan penyalarni to'laydi. |
| Yaponiya | Soliq organida soliq qarzini so'zsiz mustaqil undirish vakolati mavjud bo'lib, unga asosan majburiyat bajarilmagan taqdirda soliq organi mustaqil ravishda majburiy undirish vositalarini qo'llay oladi. |
| Germaniya | Soliq qarzi tadbirkorlik subyektlarining choraklik aylanmasi 1 500 000 yevro dan oshganidan keyin undirilishi boshlanadi va xuddi shunday korxonaning aylanmasiga qarab soliq stavkalari ham ortib boradi. Shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlarining soliq qarzlaridan voz kechish amaliyotidan keng foydalaniladi. |
| Xitoy | Soliq qarzi to'lanmasdan olingan daromadi musodara qilinadi va bank hisobvaraqlariga band solinadi, litsenziyalari bekor qilinadi hamda soliq to'lovchi yoki uning agenti 10,0 ming yuandan 50,0 ming yuangacha (16 421,4 – 82 107,0 ming so'mgacha) jarimaga tortiladi . |
| Fransiya | Soliq qarzining paydo bo'lish sababini o'rganadi . Agar soliq to'lovchi tomonidan soliq qarzi qasddan vujudga keltirilmagan bo'lsa , soliq organi tomonidan soliq qarzini 30 kun muddatda to'lash bo'yicha xabarnoma yuboriladi hamda hech qanday penya va jarimalar qo'llanilmaydi . |
| Italiya | Soliqlarni o'z muddatida to'lamaslik soliq qarzi summasining 30 foiz miqdorida jarima hisoblanadi. Ammo soliq qarzini kechiktirish 15 kungacha cho'zilsa, 1 foiz miqdorda, 15-90 kungacha to'lanmasa, 15 foiz miqdorda jarima solinadi. |
| Qozog'iston | Soliq organi soliq qarzigacha ega (soliq qarzi 4 oy ichida uzilmagan taqdirda) bo'lgan soliq to'lovchilar ro'yxatini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilib boradi . |

Yuqorida ko'rib chiqilgan xorijiy tajribalarni umumlashtirib xulosa chiqaradigan bo'lsak, xorijiy davlatlarning soliq qarzini undirish bo'yicha amalga oshiradigan tadbirlarining ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rishimiz mumkin. Xususan, bizning mamlakatimiz mentalitetidan kelib chiqib, Yaponiya, Xitoy va Italiya davlatlari amaliyotida soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzdorlik summasini undirishda qo'llanilayotgan choralarini salbiy deb ko'rsatishimiz mumkin. Sababi Yaponiyada soliq to'lovchida soliq qarzdorligi yuzaga kelganidan so'ng majburiy undirish choralari soliq organi tomonidan mustaqil qo'llanilishi, ya'ni bu yerda sud yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning aralashmasligi soliq to'lovchiga nisbatan ma'lum bir darajada adolatsizlik bo'ladi, deb hisoblaymiz. Xitoyda ham ushbu masalada keskin choralar ko'riladi, ya'ni soliq to'lovchining daromadi to'liq musodara qilinib, faoliyati doirasida litsenziyalari bekor qilinadi va bankdagi hisobvarag'iga taqiq qo'yiladi. Buning natijasida korxonalar faoliyati uzoq muddat to'xtab qolishiga sabab bo'ladi. Italiyada esa soliq qarzigacha nisbatan 30 foiz miqdorida jarima qo'llanishi oqibatida soliq qarzini to'lay olmayotgan soliq to'lovchining masa-

lasini ikki baravarga qiyinlashtiradi va oxir-oqibat korxonalar faoliyatini izdan chiqarib yuborishi mumkin. Biroq shunday bo'lsa-da, yuqoridagi 1-jadvalda ko'rsatilgan rivojlangan mamlakatlar tajribasining ayrimlari O'zbekiston soliq tizimiga joriy etilishi kelgusida soliq qarzdorligini qisqartirishda o'zining munosib hissasini qo'shadi, deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, so'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan soliq yukining pasaytirilishi, soliq stavkalarining optimallashtirilishi, tadbirkorlik subyektlariga o'z faoliyatlarini olib borishda qator yengillik va keng imkoniyat yaratilib kelinmoqda. Ammo shunga qaramay, soliq qarzdorligi mavjud bo'lgan soliq to'lovchilarimiz talaygina.

Muallif fikricha, soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzdorlikni kamaytirish ularni muddatida va to'liq undirish samaradorligini oshirishda ilg'or xorij tajribalari asosida quyidagi takliflar o'z samarasini beradi:

1. Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasi asosida mamlakatimizda soliq organi tomonidan o'tkaziladigan soliq tekshiruvlari natijasida soliq to'lov-

chiga nisbatan qo'shimcha hisoblangan soliqlar summasining 90 foizi ma'lum bir muddatda soliq to'lovchi tomonidan ixtiyoriy ravishda to'lab berilsa, soliq tekshiruv natijasida qo'llanilgan moliyaviy jarima summasini bekor qilish amaliyotini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning natijasida qo'shimcha hisoblangan soliqlarning to'lanish tezligi ortib, soliqlar o'z muddatida budjetga tushishi ta'minlanadi.

2. Germaniya davlatida soliq qarzlardan voz kechish holatlari ko'p uchraydi. Bu, ayniqsa, kichik tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keladi. Ular kichik tadbirkorlik subyektlarini "nihol"ga o'xshatishadi. Ularning fikricha, aynan shu amaliyot mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantiradi va kelgusida budjetga soliq tushumlarini oshiradi. O'zbekiston soliq tizimida ham mazkur amaliyot qo'llanilishi kelgusida mamlakatimizda tadbirkorlar soni ko'payishiga va buning natijasida davlat budjetiga soliq tushumlari oshishiga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

3. Fransiya davlati tajribasi asosida mamlakatimiz soliq tizimida soliq qarzdorligini majburiy undiruv choralari qo'llash orqali undirishdan oldin uning paydo bo'lish sababini o'rganish lozim. Agar soliq to'lovchi tomonidan soliqlar va yig'img'irlardan qarzdorlik summasi qasddan vujudga keltirilmagan bo'lsa, unga yig'img'irlardan qarzdorlik summasini ma'lum bir muddatda to'lash bo'yicha xabar-noma yuborish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sababi korxonalarda soliq hisobotini taqdim etish bilan shug'ullanadigan (odatda, buxgalteriya)

xodimining, ya'ni jismoniy shaxsning aybi (uning kasalligi, ishdan bo'shaganligi va h.k.) tufayli yuridik shaxsga nisbatan soliqlarni muddatida to'lamaganligi uchun majburiy undiruv choralari qo'llash maqsadga muvofiq emas.

4. Qozog'iston Respublikasi soliq tizimida soliq organi soliq qarzigaga ega bo'lgan soliq to'lovchilar ro'yxatini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilib borish amaliyotidan keng foydalaniladi. Ushbu amaliyot Qozog'iston Respublikasi Soliq kodeksining 127-moddasida mustahkamlab qo'yilgan [14]. Respublikamizda mazkur amaliyot joriy etilishining ijobiy tomoni shundaki, yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar o'zlarining kontragentlari bilan iqtisodiy munosabatga kirishishdan oldin, ularning moliyaviy ahvolini, shu jumladan, soliq qarzdorligi to'g'risida ma'lumotlarni o'rganadi. Buning natijasida soliq qarzigaga ega soliq to'lovchilar bilan iqtisodiy munosabatga kirishish holatlari kamayadi. Sababi budjet oldidagi soliq qarzini to'lay olmayotgan soliq to'lovchiga uning kontragenti biron-bir tovarni sotishdan oldin tovarning puli qachon kelib tushishi hamda debitorlik qarzdorligi vujudga kelishi holatlarini tahlil qiladi, ya'ni soliq qarzigaga ega soliq to'lovchi sotib olingan tovarning pulini to'lay olmasligi to'g'risida shubha paydo bo'ladi. Shuningdek, mazkur amaliyot soliq qarzigaga ega soliq to'lovchining obro'si (reputatsiyasi)ga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning oqibatida soliq to'lovchi kelgusida unda soliq qarzi yuzaga kelmasligi uchun soliqlarni o'z vaqtida to'lash choralari ko'radi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD) – Yevropadagi davlatlar birlashmasi)ning statistik ma'lumotlari. <https://www.oecd-ilibrary.org>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
4. Мороз В.В. Налоговое администрирование задолженности организаций по налогам и сборам: проблемы взыскания. Дис. канд. экон. наук. – М., 2011 г.
5. Michael Brostek. Tax debt collection IRS needs to better manage the collection notices sent to individuals. // United States government Accountability office. 2009. P-27.
6. Алихин С.Н., Левачева Д.А. Эволюция механизма принудительного взыскания задолженности перед бюджетом. // *Налоги*. 2018 г. С. 28.
7. Виноходова И.Г. Совершенствование практики взыскания задолженности организаций по налогам и сборам. // *Научное статья*, 2019 г. С. 22.
8. Tangriqulov A., Xomma A., Toshmatov Sh., Norqo'ziyev I., Roziqov N. Soliq qarzi va uni undirish. O'quv qo'llanma. – T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2010. 51-b.
9. Niyazmetov I. Soliq yukining tadbirkorlik subyektlari moliyaviy faoliyatiga va budjet daromadlariga ta'siri tahlili. *Nomzodlik ishi. Avtoreferat*. 2008-yil.
10. Jo'rayev A. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning dolzarb muammolari. *Doktorlik ishi. Avtoreferat*. T., 2006-yil.
11. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 96-modda. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020-yil. – 640 bet.
12. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari. <http://www.soliq.uz>
13. Xorij tajribasi o'rganilgan holda muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi.
14. Qozog'iston Respublikasi Soliq kodeksining 127-moddasi. 2022-yil.



ЎЗНАМАЛИК ХИЗМАТИНИНГ МАРКАЗЛАШГАН БОШҚАРУВ КОМПАНИЯЛАРИДАГИ ЎРНИ ВА ФУНКЦИЯЛАРИ

Зулфикаров Фарход Юлдашходжаевич -
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби
мустақил изланувчиси

doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss3/a49

Аннотация. Мазкур мақолада корпоратив йирик компаниялар таркибида ғазначилик хизматининг вазифаларини тақсимлаш масаласини кўриб чиқилади. Корпоратив ғазначилик хизматининг шакллари, моҳияти ва уларни амалга ошириш хусусиятлари ҳамда истиқболли йўналишлари ўрганилган. Мақоланинг мақсади - корпоратив йирик компаниялар пул оқимларини бошқаришда ғазначилик хизматининг рўлини очиб беришдир.

Калит сўзлар: ғазначилик, ҳисоб-китоб маркази, молия, пул оқими, компания.

ЦЕНТРАЛИЗОВАННОЕ УПРАВЛЕНИЕ КАЗНАЧЕЙСКОЙ СЛУЖБОЙ РОЛИ И ФУНКЦИИ В КОМПАНИЯХ

Зульфикаров Фарход Юлдашходжаевич -
Высшая школа бизнеса и предпринимательства
самостоятельный искатель

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос о распределении обязанностей казначейской службы в корпоративной структуре крупных компаний. Изучены формы, сущность и особенности их внедрения, а также перспективные направления корпоративного казначейского обслуживания. Цель статьи - раскрыть роль казначейской службы в управлении денежными потоками корпоративных крупных компаний.

Ключевые слова: Казначейство, расчетный центр, финансы, денежный поток, компания.

CENTRALIZED MANAGEMENT OF THE TREASURY SERVICE ROLES AND FUNCTIONS IN COMPANIES

Zulfikarov Farkhod Yuldashkhodjaevich -
Higher School of Business and Entrepreneurship
independent seeker

Annotation. In this article, the issue of the distribution of duties of the Treasury service in the structure of Corporate large companies is feared. The forms, essence and features of their implementation, as well as promising areas of the corporate treasury service are studied. The purpose of the article is to reveal the role of the Treasury service in managing cash flows of Corporate large companies.

Keywords: Treasury, settlement center, finance, cash flow, company.

Кириш. Пул оқимларини самарали бошқариш ҳар қандай корхоналар учун энг муҳим фаолиятлардан бири ҳисобланади. Сўнгги бир неча йил ичида компанияларнинг молиявий менежменти, жaxonдаги беқарор молиявий вазият туфайли энг долзарб бўғимлардан бири бўлиб хизмат қилмоқда. Компанияларда мустақил маблағларининг етишмаслиги ходимларга солиқ ва иш ҳақини ўз вақтида тўлаб бермаслик, кредит ва қарздорликларни тўланишининг кечикиши, шартномалар бўйича етказиб берувчилар учун тўлов шартларининг бузилишига олиб келиши мумкин. Шундай қилиб, кун сайин ривожланиб бораётган иқтисодий шароитда ҳақиқий муаммо жорий тўловлар қобилятини сақлаб қолиш ва маблағларни инвестиция қилишдан қўшимча фойда олиш ўртасидаги мувозанатни сақлаб туришдир.

Барқарор бўлмаган молиявий вазиятда компанияларда молиявий пул оқимларнинг ҳаракатини назорат қилиш эса жуда муҳимдир. Ушбу масала доирасида ғазначилик хизматининг таркибий бўлинмаси, унинг вазифалари ва

компаниялар фаолиятидаги рўли кўриб чиқилади. Сабаби жадал ривожланаётган иқтисодиётда тобора жуда кўп ташкилотлар ғазначилик бўлинмаси шакллантиришга ҳаракат қилмоқда.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Ғазначилик хизматининг марказлашган бошқарувга эга компанияларидаги ўрни ҳамда ушбу хизматнинг ўзи юзасидан турлича назарий қарашлар мавжуд.

Ўзбекистон давлат бюджетининг ғазна ижроси қонун ҳужжатларида белгилаб қўйилган махсус ваколатли молия органи ҳамда унинг Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар, туманлар, шаҳарлардаги ҳудудий бўлинмалари ғазначилик томонидан амалга оширилади[1].

Корпоратив ғазначиликда молиявий оқимларни бошқариш функцияларини марказлаштириш билан узоқ муддатли молиявий кўрсаткичларни ишончли башорат қилиш ва шўъба корхоналар ҳисобларида мақбул ликвидлик даражасини сақлаб қолиш мумкин бўлади[3].